

XVI-XIX ASRLARDA AHOLINING MAISHIY TURMUSH TARZI

Mardonova Zarina G'olib qizi

Buxoro Davlat Universiteti

Tarix 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: Bu maqolada aholining etnik tarkibi, maishiy turmush tarzi, XVI- XIX asr tarixiy voqealari, shuningdek aholining ijtimoiy-siyosiy hayoti, migratiya tushunchasi, aholining geografik joylashuvi haqida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: etnik jarayon, ijtimoiy tuzum, migratsiya, etnogenez, aholi geografiyasi.

Abstract: This article talks about the ethnic composition of the population, household lifestyle, historical events of the 16th-19th centuries, as well as the socio-political life of the population, the concept of migration, and the geographical location of the population.

Key words: ethnic process, social system, migration, ethnogenesis, population geography.

Аннотация: В данной статье говорится об этническом составе населения, бытовом образе жизни, исторических событиях XVI-XIX веков, а также общественно-политической жизни населения, понятии миграции и географическом положении населения.

Ключевые слова: этнический процесс, социальная система, миграция, этногенез, география населения.

KIRISH:

Dastavval aholi atamasiga to'xtaladigan bo'lsak, aholi deganda keng ma'noda odamlar guruhi(majmui) tushuniladi. Aniqroq aytsak aholi jamiyatning asosiy ishlab chiqaruvchi kuchidir. Har bir xalqning etnogenezi va etnik tarixini o'rganishda quyidagi tamoyillarga asoslanamiz:

1) Bir aholining kelib chiqish tarixi ko'p qirrali jarayon bo'lib, u o'z ichiga shu aholining madaniyati va ijtimoiy tuzilmasi, uning biologik xususiyatlari, tili va o'zligini anglashni qamrab oladi;

2) Etnogenez masalasiga bir tomonlama qaramasdan, shu aholining kelib chiqish tarixida ma'lum ahamiyat kasb etgan barcha tarkibiy qismlar ham o'rganilib chiqilishi zarur;

3) uzoq jarayon bo'lganligi uchun bu jarayonni bosqichma- bosqich o'rganish maqsadga muvofiqdir.



Tadqiqotchilarning fikricha, qarindosh-urug'chilik etnik jamoalari asta sekinlik bilan urug' jamoalariga aylanib boradi. Urug'- birga yashab hamkorlikda mehnat qilgan qarindoshlar uyushmasi bo'lib, ma'lum xalqlarning etnik shakllanishidagi dastlabki bosqichlardan biri sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. Aynan bu jarayonlar orqali aholi tushunchasi paydo bo'ladi.⁵

O'tgan asrning 30-yillari o'rtalarida O'rta Osiyo xalqlari tarixini yozish masalalari ro'yobga chiqarildi. Shu munosabat bilan arxeologik va etnografik ekspeditsiyalar tashkil qilina boshlandi, jumladan, etnogenez jarayonlarni tahlil qilish alohida vazifaga aylandi. XX asrning 40- yillarida o'zbek xalqining shakllanishini XV asr oxirlari- XVI asr boshlarida Dashti Qipchoqdan kirib kelgan ko'chmanchi o'zbeklar bilan izohlanadi. Ko'chmanchi o'zbeklar guruhlarida O'rta Osiyo Ikkidar3yo oralig'idagi tub joyli turkiy tilli aholiga aralashib, unga “o'zbek” nomini berdi, o'zbek xalqi etnogenezi esa Turk xoqonligidan boshlanadi degan xulosa ilgari surildi.

Asosiy qism: Biz bilamizki XIX asrda ham O'rta Osiyo xonliklari hali agrar davlat edi. Aholining ijtimoiy – iqtisodiy ahvoli yerga egalik tartiblari qandayligi bilan belgilangan. Bu davrda aholining katta qismi ekin maydonlarida mehnat qilardi. Aholi orasida yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarini asosan, paxta va donli ekinlar tashkil etgan, bundan tashqari aholi orasida bog'dorchilik, uzumchilik, poliz va sabzavot mahsulotlari yetishtirilgan. Bu davrda Buxoro xonligi aholisi hayotida hunarmandchilik muhim o'rin egallab, aholining dehqonchilik, chorvachilik va savdo-sotiq bilan shug'ullanadigan qatlaminin hayoti ham bevosita hunarmandchilik bilan bog'liq edi. Chunki har bir chorvador va dehqon hunarmandchilik buyumlaridan foydalangan holda mehnat qilgan, ayni paytda ular hunarmandchilikning turli sohalari uchun xomashyo yetkazib bergan, asosan maishiy turmushida savdogar va hunarmandchilik mahsulotlari bilan savdo-sotiq qilgan. Bundan tashqari xonlikda aholi orasida temir mahsulotlariga ehtiyoj katta bo'lganligi uchun metallga ishlov beruvchi mahalliy temirchilik sohasi rivojlandi. Hunarmandlar tomonidan asosan, mehnat qurollari, kiyim-kechaklar, zeb-ziynatlar, idish-tovoqlar, chorvadorlar foydalanadigan buyumlar tayyorlangan. Bu esa o'z navbatida aholi ijtimoiy hayotining jonlanishiga poydevor bo'ldi. Bu davrda Buxoro xonligi aholisining

1) ⁵ B.J. Eshov, A.A.Odilov. O'zbekiston tarixi I. II. TOSHKENT.
“DONISHMAND ZIYOSI” 2020.



shakllanishi ham uzoq yillar davomida sodir bo'lgan etnik jarayonlar mahsulidir. Etnik jarayon bu- kelib chiqishi bir biriga yaqin bo'lgan turli qabila va elatlarning asrlar davomida qo'shilib borishi hisoblanadi. Bizga tarixdan ma'lumki, o'zbek xalqining asosini so'g'diylar, baqtriyaliklar, xorazmiylar, sak-massagetlar, shu bilan birga farg'onaliklar va shoshliklar tashkil etgan. Aynan ushbu qabilalar Buxoro xonligi aholisining ham asosiy tarkibiy qismi sanalgan. Buxoro xonligida XVI asr boshlarida Shayboniyxonning harbiy yurishlari davomida Movarounnahr va Xorazmga 500-600 dashti qipchoq o'zbeklari ko'chib kelgan. XVI asr boshida xonlik aholisida o'zbeklardan tashqari tojiklar va turk chig'atoylari ham bo'lganligi aytiladi. XVIII-XIX asrlarda aholining ijtimoiy tarkibini ulamolar, diniy va dunyoviy muassasa egalari, hukmron zodagonlar, savdogar, hunarmand va dehqonlar tashkil etgan. Aholining aksariyat qismini o'zbeklar tashkil qilgan bo'lib, ko'plab o'zbek urug'lari vakllari xonlikning deyarli barcha hududlarida yashagan. Buxoro shahrining o'zida 60 ming aholi yashagan. Tabiiyki mamlakatda iqtisodiy rivojlanish yuz bersa, bu o'z navbatida aholi sonining oshishishiga albatta ta'sir etgan. Aholi qatlami orasida o'zbeklardan tashqari yana qozoqlar, turkmanlar, qoraqalpoqlar, tojiklar, yahudiylar, arab va forslar kabi boshqa xalq vakllari yashagan. Aholi tarkibidagi tojiklar Buxoro, Nurota va Samarqand shaharlarida yashashgan. Bundan tashqari turkmanlar ham son jihatdan ko'p bo'lgan. Buxorodagi No'g'ay saroyida ko'p sonli rossiyalik tatarlar ham istiqomat qilishgan. Qozoqlar esa cho'l va dasht hududlarida yashashgan. Taxminan ularning soni bu davrda:

Qozoqlar: 8.2 ming;

O'zbeklar: 29.2 ming;

Turkmanlar: 20.6 ming;

qoraqalpoqlar: 7.5 ming bo'lgan.

Bu davrda markaziy hokimiyatni mustahkamlash va aholi hayotini yaxshilash uchun turli islohotlar o'tkaziladi, shulardan biri Muhammad Shayboniyxonning xonlikda o'tkazgan ba'zi chora tadbirlari edi. U mamlakat xo'jaligini tiklash uchun bo'sh yotgan yerlar, vafot etgan yoki soliqlar og'irligidan ko'chib ketgan mahalliy mulkdorlar yerlarini qayta taqsimladi. Bu esa aholining ijtimoiy va maishiy turmush tarzini tartibga solishga yordam berdi. Bundan tashqari u iqtisodni tartibga solish va aholi orasida savdo sotiqni jonlashtirish maqsadida 1507-yilda pul islohoti o'tkazib, markaziy shaharlarda vazni bir xil bo'lgan (5.2gramm) kumush va mis chaqa pullar zarb qiladi. Asosan markaziy hokimiyatning siyosiy, iqtisodiy mavqeyini



kuchaytirish, shayboniy xonlari va beklari hukmronligini mustahkamlashga qaratilgan bu islohot Shayboniyxon vafotidan keyin aholi o'rtasida kuchayib ketgan o'zaro urishlar natijasida yaxshi natija bermadi va pul qadrsizlandi. Keyingi hukmdor Ko'chunchixon ham 1515-yilda pul islohoti o'tkazishga majbur bo'ladi. Ayniqsa Abdullaxon II davrida o'tkazilgan pul islohotlari xonlik aholisi va iqtisodiy hayotida katta ahamiyatda ega bo'ldi va markaziy hokimiyatning kuchayishi va savdo-sotiqning jonlanishiga turtki bo'ldi. Pul islohotini bosqichma bosqich o'tkazgan Abdullaxon II oltin, kumush, mis pullarni otasi nomidan 1560-1583- yillarda chiqarganda mamlakatdagi bir qancha shaharlarda pul zarb qilingan bo'lsa, davlatni rasman boshqargan paytda ya'ni 1583-1598- yillarda asosan, Buxoroda markazlashgan pul zarb qilishni yo'lga qo'ydi. Ayrim manbalarda aytilishicha, Abdullaxon II ba'zan Samarqand, Toshkent, Balxda ham kam miqdorda pul chiqarishga ruxsat bergan.⁶

Muhammad Shayboniyxon davrida ta'lim sohasida ham islohot o'tkazilgan edi. Unga ko'ra, bola 6 yoshdan maktabga berilgan va ikki yil o'qigach madrasaga o'tkazilgan. Madrasa uch bosqichdan iborat bo'lib, bolalar har bir bosqichda 8 yildan o'qitilgan. Bu yerda bolalarga ilohiyot, matematika, she'r, hisob-kitob kabi fanlardan ta'lim berilgan.

Manbalarda qayd etilishicha, hunarmandchilik xonlikda muhim ahamiyat kasb etgan: kulolchilik, temirchilik, zargarlik, to'qimachilik va charm ishlab chiqarish keng yoyilgan. Ayrim ma'lumotlarga qaraganda Movarounnahrda, ayniqsa to'qimachilik taraqqiy etgan. Bu yerlarda ipak va jundan tayyorlangan turli tuman gazlamalar o'zining yuqori sifatligi, bejirim va nafis naqshlari bilan boshqa hududlardagi hunarmandchilik mahsulotlaridan ajralib turgan. Masalan: Buxoroning Zandana, Samarqandning Vador, Surxandaryodagi Darzangi to'qimachilarining mahsulotlari faqat Movarounnahr va Xurosondagina emas, balki Iroq, Eron, Hindistonda ham ma'lum bo'lgan. Xususan, Narshaxiyning yozishicha, Buxoroning Zandana qishlog'ida tayyorlangan gazlamalarga Sharq bozorlarida talab juda katta bo'lgan.

Bundan tashqari, xonlikda o'troq aholidan tashqari, tog'oldi va dasht hududlarida ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi aholi ham yashagan.

⁶ O'zbekiston tarixi. TOSHKENT 2005.



XULOSA:

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Buxoro xonligi aholisi o'z davriga mos ravishda oddiy, lekin o'ziga xos rurmush tarziga ega bo'lgan. Ularning hayoti asosan yerga ishlov berish, hunarmandchilik, savdo bilan chambarchas bog'liq bo'lgan. Buxoro xonligi qadimdan aholi yashash uchun qulay geografik hudud bo'lganligi uchun ham bu yerda turli qabilalar yashab kelgan. Aholi bir biridan milliy, ijtimoiy tarkiblari bo'yicha farqlangan. Shu jihatdan Buxoro xonligi aholisi tarkibini tahlil etish, unga xos qirralarini ko'rsatish katta ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1) B.J. Eshov, A.A.Odilov. O'zbekiston tarixi I. II. TOSHKENT. "DONISHMAND ZIYOSI" 2020.
- 2) O'zbekiston tarixi. TOSHKENT 2005.
- 3) Q. Ergashev, H. Hamidov. O'zbekiston tarixi. TOSHKENT 2015.

